



ARTICLE INFO

Received: 01st June 2021

Accepted: 05th June 2021

Online: 10th June 2021

KEY WORDS

rhesus factor, endogenous, exogenous, alalia, aphasia, dysatria, innervation of peripheral nerve articulatory organs.

MAKTABGACHA TA'LIM YOSHDAGI NUTQIDA NUQSONI BOR BOLALAR BILAN ISHLASH

Ergasheva X.I.¹, Qurbonmurodova G.O.²

¹ DTPI talabasi

² DTPI talabasi

MAQOLA TARIXI

Qabul qilindi: 01-iyun 2021

Ma'qullandi: 05-iyun 2021

Chop etildi: 10-iyun 2021

KALIT SO'ZLAR

Rezuz-faktor, endogen, ekzogen, alaliya, afaziya, dizatriya, periferik nerv ortikulyatsion organlar inervasiyasi.

Ma'lumki nuqsonli bolalar bilan muloqotga kirishish uchun ,pedagogik mahorat juda kuchli bo'lmog'I lozim.Chunki ko'pgina nuqsonli bolalar (o'zlaridagi nuqsonlari sababli)o'zgaralar bilan muloqotga kirishishni istamaydi,ham

ABSTRACT

Speech problems in preschool children lag behind their low-level peers. Speech therapists, psychoneurologists and pediatricians of the children's polyclinic carry out the work of observation and careful study and referral to medical and pathological commissions.

ANNOTATSIYA

Maktabgacha yoshdagi bolalarda tilidagi uchraydigan nuqsonlar aql darajasi past tengdoshlariga nisbatan orqada bôladilar. Payqash va sinchkovlilik bilan ôrganish hamda ularni tibbiyoty va patalogik komissiyalarga yuborish ishlarini bolalar poliklinikadagi logopedlar, psixonevrologlar bolalar shifokorlari amalga oshiradilar.

qiynalishadi.Insonlar bir biri bilan muloqotga kirishar ekan, ularning asosiy ko'zlangan maqsadlaridan biri o'zaro bir biriga ta'sir ko'rsatish ,ya'ni fikr-g'oyalariga yaxshi ta'surot qoldirishdir.Ammo ko'pgina nuqsonli bolalarning fikr doirasi kuchsizroq

bo'lib ,ega bo'lgan fikrlari ham nutqida aniq namoyon ettirishga (nuqsonlari sababli)qiynalishadi.

ya'ni eshitgan so'zlarini takrorlaydi,natijada uning nutqi rivojlanadi.

Shuning uchun pedagog birinchi bo'lib nuqsonli bolalarga pisixologik ta'sir bu-turli vositalar yordamida bolalarning



fikrlari,hissiyotlari va xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsata olishi darkordir. Nutq –bu so'zlashuv o'zaro muomila jarayoni bo'lib,uning vositasi-so'zlar hisoblanadi.Monologik nutqda ,dialogik nutqda ham odam o'zlaridagi barcha so'zlar zaxirasidan foydalanib, eng ta'sirchan so'zlarini topib,sherigiga ta'sir ko'ratishni xohlaydi. Nutqida nuqsoni bor bola esa ko'pgina hollarda shu nuqsonini yashirishi natijasida muloqotda kirishishni istamaydi, kirishsa ham tor doirada insonlar (oila a'zolari ,bog'cha opasi va bir necha yaqin do'stalari)bilan muloqatga kirishadi. Shu sabab ularning so'zlar zaxirasi kam,davragirlik xislatlari sust bo'ladi.Ertaliklarga berilgan she'rlarni ham qiynalib aytishadi.

Nutq bilan eshitish bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki bola nutqining rivojlanishi uchun eshitish organing qobiliyati normal bo'lishi kerak ,

Bolalarda nutq buzulishini yuzaga keltiruvchi sabablar ichida tashqi(ekzogen)va ichki (endogen)omillar,shuningdek,artof-muhitning tashqi sharoitlari farq qiladi.

Nutqiy nuqsonning turli sabablarini ko'rib chiqishga evolyutsion dinamik yondashiladi.Bu nuqsonning yuzaga kelishi jarayonini tahlil qilishdan anomal rivijlanishning umumiy qonuniyatlarini va har bir yosh davrida nutqning rivojlanish qonuniyatlarini hisobga olishdan iboratdir.

Pisixik (shu bilan birga nutqiy)jarayonlarning birligi pirinsipi –nutqiy sistemasining rivojlanishiga –nutqiy muhit,,muomila ,emotsional aloqa va boshqa faktorlarning ta'sirini aniqlash imkonini beradi.Eshitishi normal bo'lgan bolaning kar-soqov ota –ona qo'lida tarbiyalanishi , surunkali kasal bo'lib tez-tez kasalxonalarda davolanuvchi bolalarda nutqning rivojlanmay qolishi ,oilada uzoq

vaqt davom etuvchi ruhiy shikastlanish va ikki tillilik bolada duduqlanishning yuzaga kelishiga sabab bo'lishi ,nutqiy muhitning nutq rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatishiga misol bo'ladi.

Bolalardagi nutqiy nuqsonlarning asosiy



sabablari.

1. *Embrion rivojlanish davridagi turli xil patologiyalar.*

2. Homiladorlik vaqtidagi toksikozlar ,virusli va endokrin kasalliklar.

3. Tug'ruq vaqtidagi shikaslanish va asfiksiya .

4. Bola rivojlanishining birinchi yilidagi bosh miya kasalliklari (miningit,ensafalit).

5. Miyaning chayqalishi bilan birga sodir bo'ladigan bosh miya jarohatlari.

6. Nasliy faktorlar. Bunday hollarda nutq buzulishlari umumiy nerv sistemasi

buzulishlarning bir qismini tashkil etib ,intellektual va harakat kamchiliklari bilan birga kuzatiladi.

7. Ijtimoiy-maishiy sharoitlarning yomonligi .Bu holat mikroijtimoiy qarovsizlikka, vegetativ disfunktsiyaga, emotsional-irodaviy, muhitning buzulishlariga va nutqning rivojlanmay qolishiga sabab bo'ladi.

Turli nutq buzulishlarining rivojlanishi oldidan aniqlash katta ahamiyat kasb etadi. Agarda nutqiy nuqson bolaning ôzida maktabga kelgan vaqtda ilk bor aniqlansa u holda uni tuzatish qiyinchiliklari kuzatilib ,ôzlashtirishga qiyinchilik tug'diradi.

Ba'zi holatda bunaqa bolalarda nutqning paralingvistik ta'sirining ba'zi omillari nutqni

pasaytiruvchi ya'ni susaytiruvchi ,past tovushida

ifodalash,tôxtashlar,duduqlanish,yuta itil bilan amalga oshiriladigan harakatlar, nidolardan foydalaniladi.

Muloqot jarayonidagi harakterli narsa shundaki,suhbatdoshlar bir -biriga ta'sir kôrsatmoqchi bôlishganda, dastavval Nima deyish ,qanday sôzlar vositasida ta'sir kôrsatishni ôylar ekan. Muloqotning qanday kechishi va kimning kôproq ta'siriga ega bôlishi sheriklarning rôllariga ham bog'liqdir. Ta'sirning tashabbuskuri -bu shunday sherikki, undan ataylab ta'sir

kôrsatishi maqsadi bôladi va u bu maqsadni amalga oshirish uchun bar ha yuqorida ta'kidlangan vositalardan foydalaniladi.

Shunday qilib bola ôzini tashabbuskor deb hisoblashi ya'ni hola suxbatda ôzini asosiy rôlda ekanligini sezishi kerak. Buning uchun pedagog dialogni shu maqsadda tuzushi kôzim. Eng avvola bola bilan ishonchli munosabati ôrnatishi kerak. Suhbat jarayonida bôlar uni yaxshi kôrishlari va u tôg'risidagi g'amxôrliklarini his eta olishi juda muhimdir.

Pedagog muloqot jarayonida ôyin, nutqiy mashqlar, barmoq teatri, qisqasahna kôrinishlarini ôynash, rasmi topishmoqlar ta'limiy ôyinlar barmoqlar gimnastikasi va qofiyali sôzlar ôyinidan foydalanishi muloqotga ijobiy ta'sir beradi.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan sabablar ,ayrim hollarda ularning birgalikda qo'shilishib kelishi nutqning turli tomonlarning buzulishiga sabab bo'lishi mumkin.

Organik nutq buzulishi: o'z navbatida ,ma'lum joyning zararlanishiga ko'ra markaziy va pereferik xarakterda bo'ladi.

Markaziy buzulishlar: markaziy nerv sistemasining u yoki bu qismlarining buzulishi ,zararlanishi natijasida kelib chiqadi. Markaziy xarakterdagi organik nutq buzulishlariga alaliya, afaziya, dizatriya kabi nutq kamchiliklari kiradi.

Pereferik buzulishlar: artikulyatsion apparatning noto'g'ri tuzulish yoki buzulishi va pereferik nerv artikulyatsion organlar inervasiyasining buzulishidan kelib chiqadi.

Funksional buzulishlar: bunda nutq jarayonida ishtirok etadigan a'zolar tuzulishida hech qanday o'zgarishlar bo'lmaydi. Funksional xarakterdagi nutq buzulishlariga :dislaliya duduqlanish kabi nutq nuqsonlari kiradi.



Nutq rivojlanmaganligining I darajasi:



Nutqning bo'lmasligi bilan xarakterlanadi. Bunday bolalar nutqning bolalarda 4-6 yoshdagi bunday bolarning lug'at boyligi kambag'al, noaniq bo'ladi. Nutqi tovushga taqlid qilish, tovushlar kompleksi bilan chegaralangan bo'ladi. Narsa va hodisalarni farq qilmagan holda ifodalash, so'zlarning ko'p ma'noga ega bo'lmasligi harakter xususiyat hisoblanadi. Tovushlar talaffuzida turg'unlik bo'lmaydi, tovushlar bir -biri bilan almashtiriladi, fonematik o'quv buzilgan bo'ladi. Nutq to'liq rivojlanmaganligining bu darajasiga ega bo'lgan bolalar uchun tovushlar analizi bo'yicha berilgan topshiriqlar tushunarsiz bo'ladi.

Nutq to'liq rivojlanmaganligining II darajasi:

Dastlabki keng qo'llaniladigan, odatdagi nutqning bo'lishi bilan xarakterlanadi. Bolalar oddiy jumladan foydalana biladilar, ma'lum lug'at boyligiga ega bo'ladilar. Ular narsalar, hodisalar, alohida

belgilar nomini ajrata oladilar. Lekin bunday bolalarda nutqning qo'pol darajada rivojlanmaganligi yaqqol ifodalangan bo'ladi. Ular ikki-uch so'zdan iborat gaplardan foydalaniladi. Lug'at boyligi shu yoshga mos keladigan normadan kam bo'ladi. Umumlashtiruvchi so'zlarni (mebel, kiyim, sabzavot, mevalar va boshqalarni) bilmasligi kuzatiladi. Harakat, belgini bildiruvchi so'zlardan foydalanishda qiyinchiliklar kuzatiladi, predmet nomini, rangini, shaklini, o'lchamini va boshqa belgilarini bilmaydilar.

Nutq to'liq rivojlanmaganligining III darajasi:

Nutqida leksik -grammatik va fonetikfonematik jihatdan rivojlanmaganlik elementlari kuzatiladi. Bolalar nutqga ega bo'lganda kishilar bilan aloqa bo'lmay oladilar, lekin buni ota-ona (tarbiyachi) ishtirokida ularning muayyan tushuntirishlari yordamida bajaradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rezengrad-Pupko G.A. "Rech i razvitiye vospitaniya v rannem vozraste" M 1963 y.
2. Fomichena T.B. "Vospitaniye u detey pravilnogo proizasheniya" Moskva 1987 y.
3. P.M. Po'latova "Oligofrenopedagogika" Toshkent 2005 y.
4. V.S. Raxmonova "Maxsus pedagogika" Toshkent 2004 y.